

AXBOROT-KUTUBXONA RESURLARI BILAN ISHLASH BO'YICHA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR ISHLAB CHIQISH ZARURIYATI

Raxmatullayeva Saodat Ibragimovna

QDPI. Tarix fakulteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8112225>

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot-kutubxona resurslari bilan ishlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish zaruriyati masalari to'g'risida so'z boradi. Shunindek, maqolada mazkur masalani hal etish bo'yicha takliflar va fikr mulohazalar aytiladi.

Kalit so'zlar: kutubxona, kitob, resurs, meyoriy hujjat, axborot-kutubxona, tashkilot, yo'riqnoma.

Ma'lumki, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi kutubxonashunoslik, kitobshunoslik, bibliografiyashunoslik bo'yicha metodik qo'llanmalar hamda tavsiyalar tayyorlashni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi. Bu ziyo maskanida sohaga oid qo'llanmalar, tavsiyalar hamda tegishli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Ana shunday ishlardan biri vazirlik va idoralar tasarrufidagi kutubxonalardan tajribali mutaxassislardan iborat Ishchi guruhi bir necha oy davomida Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslari bilan ishlashni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqdilar. Mazkur qaror loyihasi bilan «Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish tartibi to'g'risida», «Axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini saqlash to'g'risida», «Axborot-kutubxona resurslarini axborot-kutubxona muassasalarining fondlaridan hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida» Yo'riqnomalar tasdiqlanishi nazarda tutilmoqda. Ushbu yo'riqnomalar axborot-kutubxona muassasasining maqomidan, uning fondi tuzilmasidan, tashkiliy-texnologik xususiyatlaridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining (fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalaridan tashqari) barcha axborot-kutubxona muassasalarida qo'llanilishi majburiydir. Yo'riqnomalarda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va unga ta'riflar bilan birgalikda axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarish tartibi berilgan. SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, shu davrga qadar axborot-kutubxona resurslari bilan belgilangan tartibda ishlash uchun aniq belgilangan yuridik kuchga ega me'yoriy hujjat mavjud emasdi. Natijada vazirlik yoki axborot-kutubxona muassasalari ichki tartibdagi yo'riqnomalarga amal qilgan holda ishlab kelmoqda edi. Bu hujjatlar Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tkazilmagandan keyin tavsiyaviy hisoblanib yuridik kuchga ega hisoblanmasdi. Shu bilan birgalikda axborot-kutubxona muassasalarida ishlar turlicha olib borilardi. 353 Natijada fondlarni hisobga olish, saqlash va ularni hisobdan chiqarishda muammo va qiyinchiliklar vujudga keldi. Hatto ayrim axborot-kutubxona muassasalarida bitta nomdagi adabiyotlarning yuzlab nusxalarda saqlanishi yoki aksincha juda ko'plab nusxadagi adabiyotlarning asosiz ravishda hisobdan chiqarib yuborilishi holatlari kuzatildi. Ayniqsa mustaqillikning dastlabki yillarida adabiyotlarning nashriyot nomlarida Yosh gvardiya yoki kitoblarning so'z boshida KPSS, Lenin va h.k so'zlar mavjud bo'lsa bu kitoblar butunlay kutubxona fondidan hisobdan chiqarib yuborildi. O'sha davrlarda qaysi sohaga doir adabiyot bo'lmasin so'z boshi yuqorida keltirib o'tilgan so'zlar bilan boshlanardi. Bunday holatlarni tartibga solish maqsadida 1996 yil yanvar oyida Xalq ta'limi, Moliya vazirliklari

bilan kelishilgan va Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Nashrlarni va boshqa hujjatlarni kutubxona jamg'armasi hisobidan chiqarish, saqlash va kutubxona xodimlarining moddiy javobgarligi to'g'risida» yo'riqnoma ishlab chiqilib kutubxonalarga joriy qilingan edi. Lekin bu yo'riqnoma Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tkazilmaganligi sababli tavsiyaviy xarakterga ega edi. SHuning uchun yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishga yetarli darajada xizmat qila olmadi. Axborot-kutubxona fondlarini saqlash bo'yicha GOST 7.50-2002 Hujjatlarni konservatsiya qilish Axborot, kutubxona va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi mavjud. Bu standartda fondlarni saqlash va joylashtirish, restavratsiya qilish talablari keltirilgan. «Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 10 martda ro'yxatdan o'tkazilgan edi. Bu yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi (hozirgi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi)ning 2014 yil 20 fevraldagi 75-mh-son qarori bilan tasdiqlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlari 2006 yildan 2019 yilgacha Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi tasarrufida faoliyat olib bordi. 2019 yildan axborot-kutubxona markazlari Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tasarrufiga o'tkazilgandan keyin Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi tasarrufida kutubxonalar qolmagandan keyin bu qarorni qayta ko'rib chiqishni taklif qildi. Bundan tashqari Adliya vazirligi «Axborot-kutubxona muassasa- 354 larining axborot-kutubxona fondlarini saqlash to'g'risida», «Axborot-kutubxona resurslarini axborot-kutubxona muassasalarining fondlaridan hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomalarga bergan Huquqiy ekspertiza natijalari bo'yicha xulosasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2018 8 avgustdagi PF-5505-son Farmoniga asosan qonunchilik bazasini takomillashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish barqarorligini ta'minlash norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish maqsadida ortiqcha normativ huquqiy hujjatlarning sonini ortib ortib ketishining oldini olish maqsadida idoraviy hujjatda belgilangan masalalarni bitta loyiha bilan qamrab olish maqsadga muvofiqligi bildirildi. Taklif inobatga olindi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori loyihasiga 1-ilova qilib olindi. «Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona fondlarini saqlash va hisobdan chiqarish to'g'risida»gi Yo'riqnomalar «Nashrlarni va boshqa hujjatlarni kutubxona jamg'armasi hisobidan chiqarish, saqlash va kutubxona xodimlarining moddiy javobgarligi to'g'risida» yo'riqnomadan farqli tomonlariga to'xtalsam. Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish tartibi to'g'risida Yo'riqnomada: axborot-kutubxona fondi davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan «1-kutubxona» shaklida hisobot; axborot-kutubxona fondining hisobga olish ob'ektlari va birliklari; axborot-kutubxona resurslarini jamlanma va yakka tartibda hisobga olish; axborot-kutubxona fondini tekshirish tartiblari Axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini saqlash to'g'risida Yo'riqnomada: . Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarining doimiy, uzoq muddatli, vaqtinchalik saqlanadigan muddatlari; Fondni tashkil etish jarayonida uning butligini ta'minlash; Fondan foydalanish jarayonida asrash; Axborot-kutubxona muassasalarining javobgarligi, huquq va majburiyatlari Axborot-kutubxona resurslarini axborot-kutubxona muassasalarining

fondlaridan hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida Yo'riqnomada: Komissiya, ekspert komissiyasining vazifalari va unga ta'riflar; Axborot-kutubxona fondidan hisobdan chiqariladigan axborot-kutubxona resurslarini tanlash; 355 Axborot-kutubxona resurslarini fondidan hisobdan chiqarish; ixtisoslanmagan va ortiqcha nusxadagi axborot-kutubxona resurslarini hisobdan chiqarish; foydalanuvchilar tomonidan yoki boshqa sabablarga ko'ra yo'qotilgan axborot-kutubxona resurslarini hisobdan chiqarish; fondidan hisobdan chiqarilgan axborot-kutubxona resurslarini axborot-kutubxona muassasasining hisobga olish hujjatlaridan chiqarish; fondidan tashqi tashuvchi xotira qurilmalaridagi mikroformalar, audiovizual va elektron axborot-kutubxona resurslarini hisobdan chiqarish; Lokal tarmoq elektron axborot-kutubxona resurslarini hisobdan chiqarish tartiblari belgilanmoqda. Mazkur me'yoriy hujjat loyihalari 9 ta tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishdi, ularning e'tiroz va takliflari o'rganib chiqilib belgilangan tartibda inobatga olindi. SHuningdek, regulation.gov.uz projekt.gov.uz saytiga muhokama uchun qo'yilib O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritildi. Huquqiy ekspertiza xulosasida berilgan e'tiroz va takliflar asosida Yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mutaxassislarining qat'iy sa'y harakatlari bilan bir necha marotaba qayta ishlandi. Hozirda mazkur me'yoriy huquqiy hujjatlar loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan qabul qilinish bosqichiga yetdi. Yo'riqnomalar loyihasi hukumatimiz tomonidan ko'rib chiqilib tez kunlarda qabul qilinadi O'ylaymanki «Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarishni tartibga solish to'g'risida» Yo'riqnomalar resurslarni hisobga olish, fondlarni saqlash va undan oqilona foydalanish, shikastlanish va o'g'irlanishdan himoya qilish uchun maqbul sharoitlar yaratish, axborot-kutubxona resurslarini hisobdan chiqarish qoidalarini belgilaydigan Axborot-kutubxona muassasalarining ish faoliyati uchun birlamchi zaruriy me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

References:

1. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar t'plami. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Ўzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – B.19.
2. Berdiyeva.Z. Kutubxonashunoslik. Toshkent. Ilm ziyo, 2013. – B.23.
3. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar t'plami. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Ўzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – B.12-13.
4. Islomov E., Yo'ldoshev E. Maktab-litsey kutubxonasi ishini tashkil etish. T., O'qituvchi, 1997.
5. Berdiyeva.Z. Kutubxonashunoslik. Toshkent. Ilm ziyo, 2013. –B. 62
6. Камилова С. Ўзбекистон кутубхоналари мустақиллик йилларида: муаммолар, ўзгаришлар ва ютуқлар Фан, таълим, маданият ва бизнесда интернет ва ахборот-кутубхона ресурслари. XV Халқаро конференция. Мақолалар тўплами. Аlisher Navoiy nomidagi Ўзбекистон Milliy kutubxonasi nashriyoti Тошкент – 2022. – B.180